

## SANOATNING TABIATGA TA'SIRI

**Rustamov B.I.**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti*

[bobir\\_rustamov@bk.ru](mailto:bobir_rustamov@bk.ru)

**Aslonova N. R.**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat, ishlab chiqarishning tabiatga tasiri, uning oqibatlarini haqida tahlillar keltirilgan hamda buning natijasida inson va tirik mavjudodlarga yetkaziladigan salbiy oqibatlar bayon etilgan.

**Kalif so'zlar.** tabiat, fazo, mavjudot, tirik organism, ozon tuynuklari, sanoat, ekologiya, zarra.

**Аннотация.** В данной статье приведен анализ воздействия промышленности, производства на природу, его последствия, а также описаны негативные последствия для человека и живых существ.

**Ключевые слова.** природа, пространство, существо, живой организм, озоновые дыры, промышленность, экология, частица.

**Annotation.** This article provides an analysis of the impact of industry, production on nature, its consequences, as well as describes the negative consequences for humans and living beings.

**Keywords.** nature, space, being, living organism, ozone holes, industry, ecology, particle.

Tabiatdagi jamiyiki boykiklar bizga berilgan cheksiz boylik, baxt. Bu boylikdan unumli foydalangan holda baxtli yashash kerak. Xo`sh tabiat ozi nima? Nega uni ona tabiat deymiz? "Mexribon ona", "Ona vatan", "Ona tabiat. Inson uchun eng qadrli, har qanday sharoitda va har qanday yoshda doimo xavfsiz insoni bu ONA. Demak tabiat ham biz uchun eng qadrli, har qanday sharoitda va har qanday yoshda doimo xavfsiz.

Tabiat - odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Bu dunyo, odam, koinot; ko`zga ko`rinmas zarralar, jonsiz va jonli borliq. Bular haqida maktabda tabiat fanida o`rgatilgan. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Afsuski inson omili bilan tabiatga asrlar davomida zararli ta'sirlar ko`payib bormoqda. Inson hech qachon tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqatgina undan oqilona foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson

yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi. Odam tomonidan, ya'ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda "insoniyat tomonidan yaratilgan tabiat" deyiladi. Bularga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Oddiygina Mendeleev jadvaliga nazar salsak vodoroddan urangacha bo'lgan 90 dan ortiq kimyoviy element tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sun'iydir. Barcha sun'iy sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro energiyalari "insoniyat tomonidan yaratilgan tabiat"ga kiradi.

Tabiat haqidagi tushunchalarga Antik davr ko'zi bilan qaralsa, falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in'ikosi (Platon), uyg'un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta'limotlarda esa tabiatga ruxiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb xisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg'onish davriga kelib tabiatga hamma tabiiy uyg'unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida qaradi. Yangi davrda tabiatga bo'lgan munosabat tabiatning ilmiy o'rganish ob'yektiga aylanishida katta rol o'ynadi.

Tabiat fazo va vaqtda mavjud modda, materiya bo'lib hisoblanadi. Ular cheksiz ma'lum narsalarning (elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq, suv, havo, jonsiz va jonli mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar) majmuidan iboratdir. Bir vaqtlar (fanning so'nggi ma'lumotlari bo'yicha bundan 2 mlrd. yil avval) bu jismlar boshqa ko'rinishda bo'lgan. Bo'lajak mlrd. yillarda u yana o'zgarib boradi. Tabiat odamning, jamiyatning vatani. Odamning hayoti tabiatning, biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq. Bu sharoit salbiy tomonga o'zgartirilsa, odamning normal yashashiga putur yetkaziladi, ekologik muammolar paydo bo'ladi. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish — biosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish lozim. Insonning tabiatga bunday munosabatda bo'lishida fan asosiy omil bo'lib kelmoqda. Yer va koinotda insonning faoliyati faollashmoqda. Koinotning uzoq-uzoq joylari (mas., metagalaktikalari)da yuz berayotgan hodisalarni kengroq va chuqurroq bilish tabiat haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ekologik muammolarni keltirib chiqardi. [Mahalliy](#), mintaqaviy va global ekologik muammolarni ajratish mumkin. Ayrim yirik shahar, sanoat markazlari, alohida tumanlarda mahalliy, Orolbo'yi, Chernobilda mintaqaviy ekologik tang vaziyatlar vujudga kelgan. [Ozon tuynuklari muammosi](#), kislotali yomg'irlar, cho'llashish,

Dunyo okeanining ifloslanishi va boshqalar umumsayyoraviy muammolar hisoblanadi. Yer yuzida ekologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko'payishi global ekologik inqiroz havfining real ekanligi ko'rsatadi. Agar keyingi 30-40 yil ichida ekologik muammolarni hal etish uchun barcha zarur choratadbirlar ko'rilmasa ekologik inqiroz muqarrardir.

Ekologiya deganda organizmlarning o'zaro va muhit bilan aloqadorligini o'rganadigan biologik fan tushuniladi. Shuning bilan birga ekologiya deganda inson va organizmlarning yashash muhiti holati, organizmlar (shu jumladan inson) va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammolarini o'rgatishga alohida ilmiy yondashish (ekologik ) ham tushuniladi.

Tabiatni muhofaza qilish deganda hozirgi va kelgusi avlodlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof muhitni musaffo holday saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalgam oshiriladigan mahalliy, davlat va halqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi. Demak, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari mazmun va maqsadga ega bo'lgan tushunchalardir. Ekologiya tabiatni muhofaza qilishning nazariy asosi hisoblanadi. [Atrof muhitni muhofaza qilish](#), atrif tabiiy muhitni muhofaza qilish tushunchalari tabiatni muhofaza qilish tushunchasiga ma'nodoshdir.

Bugungi sanoat uzoq muddatli va samarali mahsuldorlikka umid bog'lashi mumkin, shuningdek, yangi tobora ko'payib borayotgan ekologik yangi loyihalarga bosqichma-bosqich o'tish sharti bilan ekologik-toza mahsulotlar uchun yangi bozorlarga va tez rivojlanayotgan ekologik moliya bozoriga kira oladi.

Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni asrab-avaylash, ozon qatlamini yemiruvchi moddalardan voz kechish bo'yicha, shuningdek iqlim o'zgarishi sohasida ham ilk tashabbusga ega muhim ahamiyatga molik dasturlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Bilamizki to'qimachilik sanoati qadim zamonlarda paydo bo'lgan. [G'oz](#) ekish, qo'lda ip tayyorlash va gazlama to'qish [Hindiston](#), [Xitoy](#), [Misr](#) va O'rta Osiyoda miloddan bir necha asr ilgari ma'lum bo'lgan. To'qimachilik sanoati mashinalashgan ishlab chiqarishga birinchi bo'lib o'tgan sanoat tarmogidir. Yevropada XVIII-asrning 2-yarmidagi sanoat to'ntarishi shu tarmoqdan boshlangan.

To'qimachilik sanoati - turli xildagi o'simlik tolalari, jun va sun'iy sintetik tolalardan turli gazlamalar, ip va boshqa maxsulotlar ishlab chiqaruvchi yengil [sanoat](#) tarmog'i hisoblanadi. To'qimachilik sanoati tarkibiga to'qimachilik xom ashyosini dastlabki qayta ishlash, ip gazlama, [zig'ir](#), [kanop](#),

jut tolasidan gazlama, [shoyi](#), jun gazlama, noto'qima materiallar, to'r to'qish, to'qimachilikattorlik, [trikotaj](#), kigiznamat bosish sohalari kiradi.

Jun sanoati - jun gazlamalar ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo hayvon tolalari, regeneratsiyalangan jun, paxta iplari, qo'shimcha mahsulotlar va sun'iy tolalardir.

Ipak sanoati - ipak sanoati gazlama ishlab chiqaruvchi tarmoqlar orasida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati bilan doimo ajralib turadi.

Zig'ir sanoati - tolali zig'ir paxtadan keyin eng mashhur va qimmatli ekin hisoblanadi. Bu juda yuqori quvvat va elastiklik, porlash va namlik qobiliyati bilan ajralib turadigan tolani beradi.

Ko'rib turganingizdek to'qimachilik sanoatining deyarli barcha xom-ashyo bazasi bu tabii mahsuloti, tabiat inomidir. Shuning uchun bu sohaning porloq kelajagini o'ylagan holda ona tabiatdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ona tabiatni asrash, kelajak avlodga o'zimiz bahraman bo'lgan go'zallikni qoldirishimiz bu bizning insoniylik vazifamiz va majburiyatimizdir. Ongli inson sifatida tabiatni asrash uchun qandaydir jazolar, qonunlar, qarorlar chiqarish shart emas. Har kim o'zi sevgan bir oddiy o'simligini asrasa olam yashilligi yasharib boraveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. <https://daryo.uz/2020/04/28>).
2. Хайитов А. А., Рустамов Б. И. Разработка технологии получения коллагеновых препаратов и мездровых клеев из отходов кож в производственных условиях //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 4 (49). – С. 86-93.
3. Рустамов Б. И., Шамсиева М. Б. Ресурсосберегающая жирующая вещества для жирования каракуля //E Conference Zone. – 2022. – С. 35-39.
4. Хаитов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. Исследование и разработка коллаген полимерных композиций на основе отходов кожевенного сырья Research and development of collagen of polymeric compositions based on waste of rawleather //современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – Т. 29. – С. 70.
5. Шамсиева М. Б., Рустамов Б. И. ҚОРАҚЎЛ МЎЙНА ЯРИМАҲСУЛОТИНИ ИҚТИСОДИЙ ВА ЭКОЛОГИК САМАРАДОР

ЁҒЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 21. – С. 38-45.

6. Хаитов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. RESEARCH AND DEVELOPMENT OF COLLAGEN OF POLYMERIC COMPOSITIONS BASED ON WASTE OF RAWLEATHER //Современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – С. 70-75.

7. Отамуродов Ж. О. РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В КОЖЕВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 20-28.

8. Отамуродов Ж. О. СОСТАВ КОСТЕЙ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО КЛЕЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 15. – С. 171-176.